

UMUMIY O'RTA TA'LIM MAKTABLARIDA O'QUVCHILARDA TADQIQOTCHILIK
KOMPETENSIYALARNI RIVOJLANTIRISH (Adabiyot darslari misolida)

Kaliquazarova G. K., Begjanova M. J.

Qoraqalpog' davlat universiteti

Kirish. Bugungi kunda ta'limning maqsadi shunchaki tayyor bilimlarni berish emas, balki o'quvchini **bilim olishga o'rgatishdir**. Tadqiqotchilik kompetensiyasi o'quvchiga axborotlar oqimidan keraklisini saralash, hodisalarni qiyoslash va xulosa chiqarish imkonini beradi. Adabiyot darsi esa inson ruhiyati va jamiyat ziddiyatlarini o'rganuvchi asosiy maydon sifatida bu ko'nikmalarni charxlash uchun eng qulay fan hisoblanadi. Bugungi kunda ta'lim tizimining asosiy maqsadi o'quvchilarga faqat tayyor bilimlarni berish emas, balki ularda mustaqil bilim olish va tadqiq qilish ko'nikmalarini shakllantirishdan iborat. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining ta'lim sohasidagi islohotlari doirasida "Modernizatsiya" tushunchasi bevosita o'quvchi shaxsini tadqiqotchilik faoliyatiga yo'naltirishni nazarda tutadi.

Zamonaviy pedagogikada "**kompetensiya**" tushunchasi o'quvchining olgan bilim, ko'nikma va malakalarini kutilmagan va murakkab vaziyatlarda qo'llay olish qobiliyatini anglatadi.

Tadqiqotchilik kompetensiyasi — bu intellektual-ijodiy faoliyat bo'lib, u o'quvchining atrof-dagi olamga nisbatan izlanuvchanlik pozitsiyasida turishini, noma'lumlikni aniqlash va bilishga bo'lgan ehtiyojini ifodalaydi. Adabiyot darslari misolida bu: Badiiy matnning "yopiq tizim" sifatida o'rganish;

Muallif niyati va asar qatlamlari orasidagi aloqani topish;

Estetik va etik xulosalar yasashni o'z ichiga oladi.

Adabiyot darslarida tadqiqotchilik kompetensiyasini rivojlantirish o'quvchining nafaqat nutqini, balki **estetik va mantiqiy tafakkurini** ham o'stiradi. Bu jarayon o'quvchini "shunchaki o'quvchi"dan "tadqiqotchi-kitobxon"ga aylantiradi. Natijada, yosh avlodda milliy va jahon adabiyotiga nisbatan tanqidiy va tahliliy munosabat shakllanadi, bu esa ularning ma'naviy yetukligini ta'minlaydi.

Zamonaviy ta'lim tizimi o'qituvchidan faqat bilim emas, balki yangilikka ochiqlik, axloqiy yetuklik, tashabbuskorlik va zamonaviy pedagogik texnologiyalarni o'zlashtirishni talab qilmoqda. Dunyo texnologik taraqqiyoti asri, globallashtirish va ijtimoiy murakkabliklar ta'sirida tez o'zgarishlarni boshdan kechirar ekan, tadqiqot va izlanishlar bilan shug'ullanish qobiliyati izlanuvchilarning jamiyatga mazmunli hissa qo'shishi va harakatlanishi uchun asosiy ko'nikma sifatida tobora ko'proq e'tirof etilmoqda. Zamonaviy ta'limda tadqiqot kompetensiyalariga urg'u hech qachon bunchalik aniq bo'lmagan. Tadqiqot, tadqiqotchilik, tadqiqotchilik kompetensiyalari, kompetensiya, kognitiv, kognitiv kompetensiyalar haqida o'zbek tilining izohli lug'atlari, pedagogik lug'atlar, pedagogik-psixologik tadqiqotchilar va olimlarining fikr mulohazalarini qisqacha ko'rib chiqamiz.

Aslini olganda, tadqiqot ko'nikmalarini tarbiyalash faqat bilim va ko'nikmalar berishdan iborat emas. Tadqiqot kompetensiyasini shakllantirishning nazariy asoslarini tushunish o'quvchilarning rivojlanish ehtiyojlari va kognitiv jarayonlariga mos keladigan samarali pedagogik yondashuvlarni ishlab chiqish uchun zarurdir. Bir nechta ta'lim nazariyalari o'rganish dinamikasi va tadqiqot qobiliyatlarini rivojlantirish haqida qimmatli tushunchalarni beradi. Ko'pgina zamonaviy ta'lim amaliyotlarining negizida o'quvchilar atrof-muhit bilan o'zaro ta'sir qilish orqali bilimlarni faol ravishda qurishlarini ta'kidlaydigan nazariya yotadi. Olimlar tomonidan asos solingan o'quvchilarning dunyo haqidagi tushunchalarini shakllantirishda oldingi tajribalari, kognitiv sxemalari va ijtimoiy o'zaro ta'sirlari muhimligini ta'kidlaydi. Bugun jahonda ta'lim tizimini modernizatsiyalash sharoitida bo'lajak o'qituvchilarni maktab ta'limidagi o'quvchilarga tadqiqotchilik kompetensiyalarini kognitiv faoliyat asosida shakllantirishni keng targ'ib qilish muhim sanaladi. Bu jarayonda maktab o'quvchilarni o'qitishda tadqiqot, tadqiqotchilik, tadqiqotchilik kompetensiyalari, kognitiv kompetensiyalarni shakllantirish orqali ularni ilmiy faoliyatga yo'naltirish va kelajakdagi faoliyatlarida tadqiqot ko'nikmalarini shakllantirishga xizmat qiladi.

Dastlab "tadqiqot" va "tadqiqotchilik" so'zlarining ma'nosiga e'tibor qaratish maqsadga muvofiq. "O'zbek tilining izohli lug'ati"da tadqiqot arabcha so'z bo'lib, birinchidan, "tadqiq ishi, tekshirish, o'rganish; ikkinchidan esa ilmiy tekshirish ishining natijasi; tadqiqotchilik "tadqiqot bilan mashg'ul bo'lish, tadqiqot ishlari" tarzida ta'rif beriladi. Pedagogik lug'atlarda fandan kelib chiqqan holda "tadqiqot metodi" deb ta'rif beriladi.

Tahlil va natijalar. Kompetentlik atamasi esa muayyan turdagi kompetensiyaga ega, izlanishga layoqatli, o'z sohasini biladigan, uni boshqalarga taqdim etishni o'rgatadigan "mahorat sohibi" ma'nolarini beradi "Kompetentlik" (ingl. "competence" – "qobiliyat") – faoliyatda nazariy bilimlardan samarali foydalanish, yuqori darajadagi kasbiy malaka, mahorat va iqtidorni namoën eta olish "Kompetentlik" tushunchasi ta'lim sohasiga psixologik ilmiy izlanishlar natijasida kirib kelgan. Psixologik nuqtayi nazardan kompetentlik "no'anaviy vaziyatlar, kutilmagan hollarda mutaxassisning o'zini qanday tutishi, muloqotga kirishishi, raqiblar bilan o'zaro munosabatlarda yangi yo'l tutishi, noaniq vazifalarni bajarishda, ziddiyatlarga to'la ma'lumotlardan foydalanishda, izchil rivojlanib boruvchi va murakkab jarayonlarda harakatlanish rejasiga egalik"ni anglatadi.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili. Tadqiqot metodi – borliq hodisalarini amaliy-nazariy jihatdan anglash hamda o'rganishning yo'lyo'riq, tadbir va usullari. Tadqiqotchi – ilmning u yoki bu sohasida tadqiqot ishi bilan shug'ullanuvchi mutaxassis. Tadqiqot metodi – 1) bilimlarning ijodiy qo'llanishini ta'minlash metodi; 2) ilmiy bilish metodlarini izlash jarayonida ularning o'zlashtirilishiga qaratilgan metod. Tajriba- pedagogik voqelikni amaliy jihatdan hissiy-empirik bilish jarayoni. Lug'atlardagi ta'riflardan ko'rinib turibdiki tadqiqot ilmiy bilish jarayoniga ijodiy yondashish demakdir. Tadqiqot va tadqiqotchilikning maqsadi o'quvchilarning ilmiy kashfiyotlari emas, balki ularning shaxsiy fazilatlarini

rivojlantirishdir [1.62]. O'quvchilar tadqiqotchilik faoliyatiga jalb qilinganda, ularning qobiliyatini, ularni qiziqtirgan masalalarni turli fan sohalarida chuqur o'rganish motivatsiyasini hisobga olish zarur.

“Tadqiqot faoliyati” iborasidagi muhim so'z bu-tadqiqotdir. “Tadqiqot” tushunchasining talqini turli lug'atlarda va ilmiy manbalarda uchraydi. Izohli lug'atda ta'kidlanganidek, tadqiqot olimlar tomonidan qandaydir hodisa, muammoni o'rganadigan harakat demakdir. Ilmiy tekshirish ishinining natijasidir. Kompetensiya – u yoki bu soha bo'yicha bilimdonlik Ta'limga kompetensiyaviy yondashuv esa o'quvchilarda ilimga chanqoqlik, izlanuvchanlik, yangilik yaratishga intilish hislatlarini tarbiyalaydi. Kompetensiya tushunchasi lotincha “competentia” so'zidan kelib chiqqan bo'lib, izohli lug'atda “qonunan ega”, “haqdor” degan ma'noni anglatadi, umumiste'molda keng ishlatiladigan “qobiliyat”, “ko'nikma,” “iqtidor” tushunchalariga yaqin turadi.

Kompetensiya (lotincha competentia) inson yaxshi xabardor, bilim va tajribaga ega masalalar doirasini ifoda etadi. “Kompetensiya” atamasi 1965-yilda ilk bor N.Xomskiy tomonidan qo'llanilgan. U o'zining “Sintaksis nazariyasi aspektlari” deb nomlangan asarida faoliyatning ideal sharoitlarida o'z ifodasini topadigan ayrim ideallashgan obyektlarga tavsiflashga (N.Xomskiy bo'yicha: tilni o'rganishda muloqotning ideal sharoitlarida) xizmat qiladigan “kompetensiya” tushunchasini qo'llashni taklif etgan. Asarning “Yaratuvchan grammatika lingvistik kompetensiya nazariyasi sifatida” deb nomlangan bobida N.Xomskiy kompetentlik tushunchasiga murojaat qilmaydi, biroq kompetensiyaning biror narsa haqidagi bilimlar (N.Xomskiy bo'yicha: “o'zining tilida so'zlovchi-tinglovchining bilimlari”) asosida nimanidir qo'llash olish (tildan real foydalanish) – bular birbiridan tubdan farq qiladigan tushuncha ekanligini asoslab bergan.

Kompetensiya (lotincha so'z bo'lib, erishaman, to'g'ri kelaman ma'nolarini bildiradi) – subyektning maqsadni qo'yish va unga erishish uchun tashqi va ichki zahiralarni samarali birga tashkil qila olishlikka tayyorgarligi, boshqacha qilib aytganda, bu subyektning muayyan kasbiy masalalarni yecha olishga shaxsiy qobiliyatidir [5.12].

Kompetensiya so'zining inglizcha lug'aviy ma'nosidan kelib chiqib “qobiliyat” tushunchasini ko'rib chiqamiz.

Qobiliyat - 1. Biror ishga qobillik, yaroqlilik, biror ishini bajara, qila olish xususiyati, layoqati. 2. Iste'dod, talant.

Qobiliyat - mayl, kizikish, moyillik, sodiqlik, tarafdorlik, layoqat, qobillik, qodirlik. 1. Bilim, ko'nikma, malakalardan farqli ularoq, shaxsning muayyan faoliyat yuzasidan layoqati va uning ish uddalay olishidagi subyektiv shart-sharoitlarni ifodalovchi individual ruxiy va jismoniy xususiyatlari. 2. Iste'dod, talant. O'zbek tilining izohli lug'atida qobiliyatga shunday ta'rif berilgan [5.16]. Pedagogik lug'atlarda qobilyat va ijod, ijodkorlik tushunchalarini ko'rib chiqamiz. Qobiliyat - o'quvchi yoki talabani individual salohiyati, imkoniyatlari ifodasi. Qobiliyat bilimdan keskin farqlanadi, bilim mutolaa natijasi hisoblanadi.

“Kognitiv” tushunchasi “bilish”, “bilish faoliyati” bilan birga qo'llaniladi. Kognitiv kompetentlikning zaruratini asoslashdan avval “bilish” tushunchasiga qisqacha to'xtalib o'tamiz. Bilish – bu obyektiv borliq tavsifining ongda ifodasidir. U his tuyg'ular (boshqa odam ruhiyatidagilarni his qilish)da, fikrlar (fikrlash)da, til (interpretatsiya)da va xatti-harakat (maqsadga erishish bo'yicha harakatlar)da namoyon bo'ladi [5.14]. Ijod – o'quvchining yaratuvchiligi, kashfiyoti. Ijodiy izlanish – pedagog boshchiligidagi qo'yilgan muammolar, masalalarni yechish yo'llarini faol izlashni tashkil etishga xizmat qiladigan usuli. Kognitiv – shaxsning mustaqil fikrlash jarayoni. Kognitiv ta'lim – alohida iqtidorli bolalarga ta'lim-tarbiya. Kognitiv uslub – 1) shaxsning bilish jarayoni strategiyasida qo'llaydigan o'ziga xos bilish xususiyatlari; 2) maxsus tanlangan testlar to'plamiga ko'ra nazorat qilish usuli yoki xususiy bilish ko'rsatkichlari majmui. Tadqiqot va tadqiqotchilikning maqsadi o'quvchilarning ilmiy kashfiyotlari emas, balki ularning shaxsiy fazilatlarini rivojlantirishdir [3.8]. O'quvchilarni tadqiqotchilik faoliyatiga jalb qilinganda, dastlab ularning tadqiqotchilik, kompetensiyalarini, kognitiv kompetensiyalarini, kognitiv faoliyatini, qobiliyatini, va ularni qiziqtirgan masalalarni turli fan sohalarida chuqur o'rganish motivatsiyasini hisobga olish zarur.

Umumiy o'rta ta'lim maktablarida kommunikativ kompetensiyalarni qo'llash orqali har bir o'quvchiga ta'sir etib, sinfda munozarali muhokama qilinadigan muhitni yaratishdan iboratdir. Bunda bir qancha metodlardan ham bir vaqtning o'zida foydalanish mumkin. Bularning barchasi kommunikativ kompetensiyalarning qo'llanilishiga olib keladi. O'qituvchi tomonidan yangi mavzu muammo ko'rinishida berilishi mumkin va o'quvchilar oldingi bilimlarga tayanib muammoni hal etishga kirishadilar. Bunda o'qituvchi o'quvchilar fikrini yinglab, ushbu mavzu haqidagi ularni fikrlashlarini, qaysi fikrlari to'g'ri yoki qaysi fikrlari noto'g'riligiga qarab xulosaga ega bo'lishi mumkin. Bugungi kunga kelib o'qituvchi qanchalik bilimli, malakali bo'lmasin agar u an'anaviy yondashuvda qolib ketgan bo'lsa, ayni vaqtdagi globallashuv jarayonida uning bu bilimlari albatta kamlik qiladi. Hozirgi davr talablaridan kelib chiqadigan bo'lsak, faol harakat qilishga tayyor, o'quvchilar bilan samarali aloqa o'rnatish muhim hisoblanadi.

An'anaviy va kommunikativ kompetensiyaga tayanib o'tilgan darslarni taqqoslaydigan bo'lsak, kommunikativ kompetensiyaga asoslanib olib borilgan darslar anchagina samarali ekanligini ko'rishimiz mumkin. An'anaviy darslarda ko'proq o'qituvchi faol bo'ladi, o'qituvchi gapiradi, o'quvchilar esa tinglaydi ya'ni o'qituvchi subyekt o'quvchilar esa obyektga aylanib qolishadi, aynan kommunikativ kompetensiya shu narsani inkor etadi. Bunda o'quvchilarni sust obyektidan faol subyektga aylantirishga xizmat qiladi. Zamonaviy ta'lim tizimi o'quvchilar shaxsini har tomonlama rivojlantirishga qaratilgan bo'lib, turli xil variantlar va aloqa vositalarini o'z ichiga oladi, ular yordamida o'quvchilarning ehtiyojlari va hamkorlik qilish qobiliyatini shakllantirish, samarali o'zaro ta'sir va aloqani rivojlantirish, malakalari amalga oshiriladi.

Kommunikativlik shunday qobiliyatki, bunda o'qituvchi va o'quvchilar bilan o'zaro to'g'ri muloqot o'rnatish natijasida o'quvchilarda o'ziga nisbatan ishonch hayrixohlik uyg'otadi. Dewey bu borada shunday fikr bildirgan: “Haqiqiy ta'lim - bu tajriba asosida sodir bo'ladigan jarayon bo'lib, u o'quvchilarning shaxsiy faolligini va mustaqilfikrlash qobiliyatini rag'batlantiradi”. O'quvchilarga to'g'ri muomala qilish bolalarga yaqinlasha olish ular bilan

pedagogik nuqtayi nazardan juda samarali o'zaro munosabatlar o'rnatish bilish pedagogik qobiliyatni mavjudligidan dalolatdir.

Kommunikativ qobiliyat-bu o'qituvchining tarbiyalanuvchilar bilan aloqa o'rnatish faoliyatini tashkil qilishi uchun zarur bo'lgan bilim, malaka ko'nikma tajribasidir. O'qituvchining kommunikativ qobiliyati pedagogik faoliyat jarayonida shakllanadi. Kommunikativ qobiliyatni shakllantirishda o'qituvchi juda muhim rol o'ynaydi. O.Hasanboyeva "Har bir bola o'ziga xos qobiliyat bilan tug'iladi, o'qituvchining vazifasi - ularni erta aniqlab, rivojlantirish uchun individual yondashuvni tanlashdir" [2]. Muloqot o'quvchilarni munosabatlar va o'zaro ta'sirlarda o'zining egosentrik pozitsiyasini yengib o'tganda, atrofdagi guruhdoshlari pozitsiyasini idrok etish va hisobga olishni, boshqa nuqtayi nazarni hurmat qilishni o'rgatganda, suhbatdosh yoki sherikning faoliyatdagi manfaatlarini hisobga olishni nazarda tutadi. Hamkorlikdagi faoliyat sherigi bilan umumiy maqsadga erishish uchun harakatlarni muvofiqlashtirishga qaratilgan harakatlarni nazarda tutadi. Ya'ni o'quvchilarga guruh-guruh qilib topshiriqlar berilganda albatta sheriklari bilan hamkorlik faoliyati yuzaga kelib, maqsad tomon birga yo'naladi. J.Habermasning fikriga ko'ra: "Muloqot orqali insonlar o'zaro tushunish va hamkorlikni rivojlantiradi. Har qanday ijtimoiy tizimda o'zaro muloqot muhim omil hisoblanadi" [3]. Kommunikativ kompetensiya-bu shaxsning ijtimoiy o'zaro ta'sir jarayonida orttirilgan muloqot qilish qobiliyati. Kommunikativ kompetensiya lingvistik, sotsiolingvistik va pragmatik komponentlarni o'z ichiga oladi. Kommunikativ kompetensiya ijtimoiy o'zaro ta'sir jarayonida shakllanadi va nutq faoliyatida amalga oshiriladi. Kompetensiya samarali muloqotni ta'minlaydigan bilim, ko'nikma va malakalar to'plamini o'z ichiga oladi. Ushbu turdagi kompetensiya aloqa chuqurligini va doirasini o'zgartirish, aloqa sheriklari tomonidan tushunish va tushunish qobiliyatini o'z ichiga oladi. Tadqiqotchilik kompetensiyasini shakllantirishning nazariy asoslari zamonaviy ta'lim tizimida o'quvchilarni mustaqil bilim olish, muammolarni tahlil qilish va ilmiy izlanish olib borishga tayyorlashning asosiy negizi hisoblanadi. Bu kompetensiya faqatgina bilimlar yig'indisi emas, balki ularni amaliyotda, ijodiy va tanqidiy tarzda qo'llash qobiliyatidir.

Xulosa va takliflar. Ona tili va adabiyot darslarida o'quvchilarning tadqiqotchilik kompetensiyasini rivojlantirish – ularning kelajakda oliy ta'limga tayyor bo'lishini va jamiyatda o'z o'rnini topishini ta'minlaydi. O'quvchilarda kognitiv kompetensiyalarni shakllantirish talabalarida tadqiqotchilik faoliyatini tashkil etish ilmiy jihatdan yondashish, shaxsning o'zlashtirgan bilim, malaka, tajribasiga tayanish va yaratuvchanlik sifatleri tamkomillashtirish boy moddiy-texnik bazani taqozo etadi. Bu ta'lim muassasalarining tegishli adabiyotlar, laboratoriya xonasi va laboratoriya jihozlar bilan ta'minlanganlik darajasiga bog'liq holda nomoyon bo'ladi. Umumiy o'rta ta'lim tizimida tadqiqotchilik kompetensiyalarini rivojlantirish o'quvchilarni hayotga tayyorlashning eng samarali yo'lidir. Bu jarayonda o'qituvchi endi asosiy bilim beruvchi emas, balki **fassilitator (yo'naltiruvchi)** vazifasini bajarishi lozim. Ta'limga tadqiqotchilik elementlarini kiritish kelajakda innovatsion fikrlaydigan kadrlar tayyorlashning poydevori bo'lib xizmat qiladi. Umuman olganda, kommunikativ kompetensiyaning shakllanishi tadqiqotchilik kompetensiyaning shakllanishiga asos soladi desak mubolag'a emas.

ADABIYOTLAR

1. Mirziyoyev Sh.M. Yangi O'zbekiston strategiyasi. – Toshkent: "O'zbekiston", 2021.
2. Abduqodirov A.A. Ta'limda boshqaruv va pedagogik texnologiyalar. – Toshkent: Fan va texnologiya, 2008
3. Fayzullayeva L.S. Umumiy o'rta ta'lim maktablarida o'quvchilarning kommunikativ qobiliyatini rivojlantirish pedagogik asoslari. // Inter education & global study. 2025, №5. B.230-238.
4. Hasanboyeva O. Kichik yoshdagi o'quvchilarning qobiliyatlarini rivojlantirish. 2005
5. Jo'rayev R.X. Ta'lim menejmenti va ta'lim sifatini boshqarish asoslari. – Toshkent: Akademnashr, 2012
6. Ona tili va adabiyot fanini o'qitish metodikasi (Ilmiy maqolalar to'plami).
7. M. Odilova, D. Jabbarova, S. Jo'raev. Pedagogik atamalar. Namangan – 2023-y., 94-b.
8. Yo'ldoshev J.G'. Zamonaviy dars. – Toshkent, 2018.
9. O'zbek tilining izohli lug'ati / 5 jildli. Uchinchi jild. A.Madvaliev tahriri ostida. Tahrir hayati: E.Begmatov boshq. - Toshkent: "O'zbekiston Milliy ensiklopediyasi" Davlat ilmiy nashriyoti, 2006. - 637-b.
10. Habermas J. Kommunikativ harakat nazariyasi.2000
11. [https:lex.uz. 2019 yil, 5-mart]
12. [https:lex.uz. 2020-yil 11-sentyabr]

Annotatsiya: Ushbu maqolada umumiy o'rta ta'lim maktablarida o'quvchilarning tadqiqotchilik faoliyatini tashkil etish, ularda mustaqil bilim olish va muammoli vaziyatlarni yechish ko'nikmalarini rivojlantirish masalalari yoritilgan. Shuningdek, zamonaviy ta'lim texnologiyalaridan foydalangan holda o'quvchilarning intellektual salohiyatini oshirish bo'yicha metodik tavsiyalar berilgan.

Kalit so'zlar: tadqiqotchilik, kognitiv kompetensiyalar, kompetensiyaga asoslangan yondashuv, hermenevtik yondashuv.

Аннотация: В данной статье высказаны мнения о компетенциях и рекомендациях по развитию исследовательских навыков учащейся молодежи, начиная со школьного образования, и их проведению.

Ключевые слова: исследовательская деятельность, когнитивные компетенции, подход, герменевтический подход.

Abstract: This article expresses views on the development of research skills among students starting from school education, as well as on the competencies and guidelines for conducting them.

Key words: research, cognitive competencies, competence-based approach, hermeneutic approach.